

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI GENDER METOFORALARI AHAMIYATI

Yormatova Maftuna

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniladigan genderga oid metaforalar deskriptiv tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda metaforalarning erkak va ayol obrazlarini shakllantirishdagi roli hamda ularning madaniy va ijtimoiy stereotiplarni aks ettirish xususiyatlari badiiy adabiyot namunalariga tayangan holda tahlil qilinadi. Konseptual metafora nazariyasi doirasida olib borilgan tahlil natijasida har ikki til va madaniyatda gender rollarining til orqali mustahkamlanishi aniqlanadi. Maqola til, madaniyat va gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *gender metaforalari, konseptual metafora, til va madaniyat, gender stereotiplari, o‘zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil, kognitiv lingvistika*

Annotation: *This article examines gender-related metaphors in Uzbek and English through a descriptive analysis. The study analyzes the role of metaphors in shaping male and female images, as well as their function in reflecting cultural and social stereotypes, based on examples from literary texts. Using the framework of conceptual metaphor theory, the analysis reveals how gender roles are reinforced through language in both cultures. The article contributes to a deeper understanding of the interconnection between language, culture, and gender.*

Keywords: *gender metaphors, conceptual metaphor, language and culture, gender stereotypes, Uzbek language, English language, comparative analysis, cognitive linguistics*

Til va madaniyat uzviy bog‘liq bo‘lib, til orqali jamiyatning qadriyatlarini, fikrlar va stereotiplar ifodalanadi. Metafora - tilning eng kuchli vositalaridan biri bo‘lib, murakkab tushunchalarni sodda tanish tasavvurlar orqali anglash imkonini beradi. Genderga oid metaforalar jins bilan bog‘liq ijtimoiy rollar va stereotiplarni shakllantiradi hamda jamiyat ijtimoiy tuzilmasini aks ettiradi. Ular erkak va ayol tasavvurlarini madaniy kontekstda ifodalaydi va shu orqali til orqali jamiyatning gender qarashlarini anglashga yordam beradi.

Metafora esa bir kontseptni boshqa kontsept orqali ifodalash jarayonidir. Lakoff va Johnson fikriga ko‘ra, metaforalar bizning dunyoqarashimizni, xususan gender qarashlarni shakllantiradi, chunki ular noaniq yoki abstrakt tushunchalarni tanish obrazlar orqali

ifodalaydi. (Lakoff & Johnson, 1980, 5-b.) Metaforalar orqali gender rollari, ularning kuchi, o‘rni yoki ijtimoiy vazifasi haqida jamiyatning qadriyatlarini tilga tushadi. Masalan, ingliz tilida “man as a rock” (erkakni “tosh”ga o‘xshatish) kabi metafora erkakni mustahkam, barqaror sifatida tasvirlaydi. O‘zbek tilida esa ayollarga ko‘pincha “gullar” yoki “oy kabi yuz” kabi metaforalar berilib, ularning go‘zalligi va nozikligi ta’kidlanadi — bu ham gender stereotipini mustahkamlaydi.

1. O‘zbek tilida genderga oid metaforalar

O‘zbek tilida erkaklar ko‘pincha kuch, yetakchilik va qat’iyat bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi. Masalan, “temir odam” - mustahkam, qat’iyatli erkak, “qahramon yurak” - jasorat va iroda belgilari. Bu kabi metaforalar erkak obrazini kuch, mustaqillik va liderlik bilan bog‘laydi, ya’ni an’anaviy ijtimoiy rollarni mustahkamlaydi.

Badiiy adabiyotda ham erkak obrazi ko‘pincha tashqi qiyofa, gavda va jismoniy barkamollik orqali metaforik tarzda ideallashtiriladi. Bunga yaqqol misol sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek obrazining ilk tasvirini keltirish mumkin: “Og‘ir tabiatlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarli edi.” (Qodiriy, 1994, 2-b). Ushbu tasvirda erkak obraziga nisbatan ishlatilgan sifatlar oddiy tashqi tavsif emas, balki genderga oid metaforik yuklamani o‘z ichiga oladi. “Ulug‘ g‘avdalik”, “og‘ir tabiatlik” va “ko‘rkamlik” birgalikda o‘zbek yigitlarini jismonan va ruhan ustun, ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa, “og‘ir tabiatlik” birikmasi erkakning vazminligi, mas’uliyati va ichki kuchini ifodalovchi abstrakt sifatning tanaviy metaforasi hisoblanadi.

Shuningdek, “murti sabz urgan” iborasi erkaklikka endigina kirib kelayotgan, ammo allaqachon jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlagan shaxs obrazini yaratadi. Bu orqali erkaklik biologik holat emas, balki ijtimoiy yetuklik mezoni sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi Otabek obrazi orqali o‘zbek jamiyati erkaklarini kuch, jiddiylik va jamiyat oldidagi mas’uliyat bilan chambarchas bog‘lagan. Natijada bu obraz til orqali ijtimoiy ideal darajasiga ko‘tariladi va an’anaviy gender rollari mustahkamlanadi.

O‘zbek tilida ayol obrazi esa ko‘pincha go‘zallik, noziklik, poklik, sabr-toqat va hissiy chuqurlik bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi. Bu metaforalar ayolning nafaqat tashqi qiyofasini, balki jamiyatda unga yuklatilgan axloqiy va ijtimoiy vazifalarni ham aks ettiradi. Ayol obrazining bunday metaforik talqini an’anaviy madaniyatda ayolni mehr manbai, sabr timsoli va oilaviy barqarorlik ramzi sifatida ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarda ayollar ko‘pincha tabiat unsurlari orqali tasvirlanadi. Masalan, “oy yuzli”, “guldek nozik”, “bahordek latofatli” kabi metaforalar ayol go‘zalligini tabiiylik va soflik bilan bog‘laydi. Ushbu metaforalarda ayol estetik obyekt sifatida talqin qilinadi, bu

esa uning ijtimoiy qadrini tashqi ko‘rinish orqali belgilashga moyillikni ko‘rsatadi. Abdulla Qodiriy shunday tasvirlaydi: “Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuc jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi‘atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoq-da edi. Turib o‘lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi- Kumushbibi edi.” (Qodiriy, 1994, 14-b)

O‘zbek madaniyatida ayol ko‘pincha sabr timsoli sifatida ham metaforalanadi. “Tog‘day sabr”, “ko‘ngli dengiz” kabi ifodalar ayolning ichki kuchini ifodalasa-da, bu kuch ko‘proq chidash va bo‘ysunish bilan bog‘lanadi. “O‘tkan kunlar” romanida ham Kumushning onasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘riliq ma‘nolari tomib turg‘an bu xotin qutidorning rafiqasi - O‘ftob oyim” (Qodiriy, 1994, 14-b). Bu tasvir orqali o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan ko‘plab hislatlar ochib berilgan.

Ayol obrazi ko‘pincha “uy nuri”, “ro‘zg‘or fayzi”, “ko‘ngil chirog‘i” kabi metaforalar orqali beriladi. Bu ifodalar ayolni oilaviy makon bilan bog‘laydi va uning ijtimoiy vazifasini uy va oila doirasi bilan cheklaydi. Shu bilan birga, bu metaforalar ayolning jamiyatdagi axloqiy mas‘uliyatini ham oshiradi, chunki u nafaqat o‘zini, balki butun oilaning obro‘sini ifodalovchi shaxs sifatida talqin qilinadi.

Ayollar tasvirida qo‘llaniladigan metaforalar o‘zbek tilida asosan go‘zallik, noziklik, sabr va poklik konseptlari atrofida jamlangan. Bu metaforalar ayolni hissiy va axloqiy markaz sifatida yuksaltiradi. Til orqali shakllangan ushbu metaforik model ayolning jamiyatdagi o‘rnini an‘anaviy gender rollari asosida belgilaydi.

2. Ingliz tilida genderga xos metaforalar

Ingliz tilida ham genderga oid metaforalar erkak va ayol obrazlarini an‘anaviy ijtimoiy rollar asosida shakllantiradi. Erkaklar ko‘pincha kuch, aql, nazorat va yetakchilik, ayollar esa go‘zallik, hissiyot, noziklik va axloqiy poklik bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi. Bu metaforalar ingliz madaniyatida gender rollarining til orqali mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ingliz badiiy adabiyotida erkak obrazi ko‘pincha kuch va nazorat manbai sifatida metaforalanadi. “Man of steel”, “strong pillar”, “head of the family” kabi ifodalar erkakni mustahkam, tayanch va yetakchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu metaforalarda erkak ijtimoiy

barqarorlikning asosiy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Uilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasida erkaklik kuch va jasorat bilan bog‘lanadi. Hamlet otasini quyidagicha tasvirlaydi: “So excellent a king; that was, to this, Hyperion to a satyr.” (Shakespeare, 2008, 43-b)

Bu yerda qirol “Hyperion” (quyosh xudosi) bilan qiyoslanadi. Ushbu metafora erkak obrazini ilohiy kuch, buyuklik va ustunlik bilan bog‘laydi.

Xuddi shuningdek, ingliz tilida keng tarqalgan “rock of the family” metaforasi erkakni oilaning hissiy va iqtisodiy tayanchi sifatida ko‘rsatadi. Bu metafora erkakdan hissiyotlarini yashirish, barqarorlikni ta‘minlash va mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishni talab qiladigan gender modelini mustahkamlaydi.

Ingliz adabiyotida ayol obrazi ko‘pincha yorug‘lik va go‘zallik bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi. “Angel”, “flower”, “light”, “gentle soul” kabi metaforalar ayolni nozik, pok va estetik obyekt sifatida talqin qiladi. Jane Austinning “Pride and Prejudice” romanida Elizabeth Bennet obraziga nisbatan ishlatilgan tasvirlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “She is tolerable, but not handsome enough to tempt me.” (Austen, 1813)

Bu jumlada ayolning qadri, asosan, tashqi ko‘rinish orqali baholanadi. Ayol obrazi ijtimoiy munosabatlarda estetik mezon asosida qabul qilinadi. Bu esa ingliz jamiyatida ayolning ijtimoiy mavqei ko‘pincha uning jismoniy jozibasi bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ingliz tilida ayollar ko‘pincha “angel of the house” metaforasi orqali tasvirlanadi. Bu metafora Viktoriya davri adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, ayolni uy, sokinlik va axloqiy poklik timsoli sifatida ko‘rsatadi. Ayolning asosiy vazifasi mehr berish, sabr qilish va oilaviy muhitni saqlash sifatida talqin qilinadi.

Ingliz tilida ayollarga nisbatan “fragile”, “delicate flower”, “soft heart” kabi metaforalar qo‘llanadi. Bu metaforalar ayolni hissiy jihatdan boy, ammo ijtimoiy jihatdan mo‘rt shaxs sifatida ko‘rsatadi. Masalan, Shekspirning “Romeo and Julietta” asarida Julietta quyidagicha tasvirlanadi: “It is the east, and Juliet is the sun.” (Shakespeare, 2008)

Bu metaforada ayol quyoshga qiyoslanib, yorug‘lik va go‘zallik manbai sifatida ideallashtiriladi. Biroq bu ideallashtirish ayolni faol subyekt emas, balki erkak hayotining ma‘nosi va ilhomi sifatida talqin qiladi.

Shunday qilib, ingliz tilidagi gender metaforalari erkakni kuch, nazorat va yetakchilik, ayolni esa go‘zallik, hissiyot va axloqiy poklik bilan bog‘laydi. Bu metaforalar til orqali gender rollarini tabiiy va o‘zgarmasdek ko‘rsatadi. Lakoff va Johnson ta‘kidlaganidek, bunday metaforalar abstrakt tushunchalarni tanish obrazlar orqali anglashga yordam berib, jamiyatning gender haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi (Lakoff & Johnson, 1980).

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi gender metaforalari mazmunan farqlansa-da, funksional jihatdan o‘xshashdir. Har ikki madaniyatda erkaklik

kuch, yetakchilik va mas’uliyat bilan, ayollik esa go‘zallik, sabr va hissiylik bilan bog‘lanadi. Metaforalar orqali gender rollari tabiiy va o‘zgarmasdek ko‘rsatilib, ijtimoiy stereotiplar til darajasida mustahkamlanadi.

Shunday qilib, genderga oid metaforalar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki jamiyatning gender haqidagi qarashlarini shakllantiruvchi va avloddan avlodga uzatuvchi muhim madaniy mexanizm hisoblanadi. Ularni tahlil qilish orqali til, madaniyat va gender o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(12), 86–89.
2. Mamarasulova, S. S. (2025). Reklama tarjimasining ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari. *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*, 8(2),
3. Qodiriy, A. (1994). O‘tkan kunlar. Toshkent: Sharq.
4. Shakespeare, W. (2008). Hamlet. Oxford University Press.
5. Shakespeare, W. (2008). Romeo and Juliet. Oxford University Press.